

SAHIHL BUXORIYGA SO'NGI IKKI YUZ YILDA YOZILGAN SHARHLARDAN  
BIR JUFT TUHFA.**Mirboboyev Mirabbos***Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dunyoga taniqli ajdodlarimizdan biri bo'lgan, islom dini rivojiga misli ko'rilmagan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriyning shoh asari "Sahih al-Buxoriy"ning ikki sharhi haqida bayon qilingan. Bu maqola Imom Buxoriy haqida mustaqil o'rganuvchilar uchun manba bo'lib xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Imom Buxoriy, Sahih al-Buxoriy, sharh, Sharqoviy, Zabidiy.*

Ma'lumki, Islom olamida Qur'on Karimdan keyingi eng ishonchli manba bu Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asaridir. Bu asar shu kungacha butun Islom olamida ma'lum va mashhur bo'libgina qolmay, Islom ulamolari tomonidan so'zsiz qabul qilingan asar hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir Islom ulamosi ushbu asarni o'qishga, o'rganishga, o'qitishiga harakat qilib kelishadi. Bundan tashqari, Islom olimlari bu asarga sharh, hoshiya, tarjima yozish orqali ham naqadar ehtiromlari borligini-da ifodalab kelishgan. Chunki, bu kitobga ismini nisbatlanib zikr qilinishi, unga yozilgan har bir sharh sinchiklab o'qilishi va buning ortida dinning muhofazasi yotishi hech kimga sir emas. Bu esa inson uchun eng qiymatli ma'naviy yutuqdir.

Imom Buxoriyning ushbu shoh asariga har bir asrda yuzlab sharhlar, hoshiyalar bitilgan bo'lib, biz esa quyida oxirgi ikki yuz yilda bitilgan mumtoz sharhlardan bir juftini tanitishni lozim topdik:

**1. FATHUL MUBDIY SHARHI MUXTASAR AZ-ZABIYDIY**

Ushbu sharhning muallifi Shayxul Islom, Ilm ahlining peshvosi, Abdulloh ibn Hijoziy ibn Ibrohim Al-Misriy Al-Azahriydir. Bu zot Shayx Sharqoviy nomi bilan tanilgan hamda Azhar Universitetining shayxlaridan edilar. Shayx Sharqoviy o'z davrida Shofeyi faqihlarining muftiysi edi. Qolaversa, bu zot usuliy va nahviy olim, muhaddis, tarixchi va tasavvuf shayxlaridan edi. Shayx Abdulloh Sharqoviy Misr Arab Respublikasi Sharqiyya viloyatining Qoriyn qishlog'ida 1150-hijriy, 1738-milodiy sanada tavallud topgan.

Yosh Abdulloh yoshlik chog'idayoq o'z qishlog'i Qoriynda Qur'oni Karimni to'liq yod oldi. Qur'onni yod olgan yosh Abdullohning shar'iy ilmlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bordi. Shundan so'ng iste'dodli talaba Abdulloh Mirsning Qohira shahrida joylashgan Al-Azhar dorulfununi tomon yo'l oldi. U Azhari Sharifda o'z davrining yetuk olimlaridan ta'lim oldi va ko'rsatgan qat'iy g'ayrati tufayli tez muddatda olim bo'lib yetishdi. Tabiatan tasavvufga moyil Abdulloh bu ilmning sir-asrorlarini ham tez orada

o'zlashtirib buyuk tasavvuf namoyondasi bo'lib kamol topdi. Keyinchalik, o'z davridagi ruhiy tarbiya mashoyixlarining ustuni maqomini oldi.

O'sha davrda Azhari Sharifning Shayxlarining boshlig'i bo'lmish Shayx Ahmad Arusiy hijriy 1208-yilda olamdan o'tgach Shayx Abdulloh Sharqoviy Azhari Sharif dorulfununi Shayxi maqomini egalladi.

Shayx Sharqoviy milodiy 1813-yili, hijriy 1227-yili, Shavvol oyining 2-kuni Qohira shahrida olamdan ko'z yumdi.

Alloma Sharqoviy Fathul-mubdiy asarini Shayx, Imom, Hofiz Zayniddin Ahmad ibn Muhammad ash-Sharjiy az-Zabiydiyning "At-tajriyd as-Soriyh li ahadiys as-sahih" asariga sharh sifatida yozgan. Alloma Ahmad az-Zabiydiy Sahihi Buxoriy asarida kelgan hadislarning sanadlarini olib tashlab, takror kelgan hadislarini tushirib, yangidan tartiblab muxtasar qilgan edi.

Ahmad az-Zabiydiyning Sahihi Buxoriyga qilgan ushbu muxtasari bir jild sifatida Ibnul-Javziy nashriyotida Toriq ibn Evazullohning tahqiqi bilan 2012-yilda nashr qilingan.

Shayx Abdulloh Sharqoviy Ahmad Zabiydiyning muxtasarini o'ta ajoyib uslubda sharhlagan. Sharh asnosida Alloma hadislarning lafzlarini tahrir qilib, birma-bir izohlagan. So'zlar va jumalarning e'roblarini bayon qilgan. Bu hadislariga tegishli muhaddislarning hukmlarini aytib o'tgan. Qolaversa, Shayx Sharqoviy bu sharhda hadislarning istinbotiga doir faqihlarning qarashlarini ham keltirgan. Judayam yengil-u oson va ishonchli bo'lgan ushbu asarni Shayx Sharqoviy "Fathul-mubdiy bi sharhi muxtasar az-Zabiydiy" deb nomlagan. Kitob tez orada olimlar-u talabalar orasida shuhrat qozondi. Asar hozirda ham Misr Arab Respublikasining universitet va madrasalarida darslik sifatida o'qitiladi.

"Tarix al-adab al-Arobiy" asarining muallifi Karl Brukellmann ushbu asarni 1920-yilda 3 jild sifatida Qohirada nashr qilinganini zikr qilgan.

Kitobning quyidagi nashrlari mavjud:

Qohiradagi Maktaba al-arobiyya al-kubro nashriyoti nusxasi;

Livan davlatining Bayrut shahrida 1965-yilda 3 va 4 jild sifatida nashr qilingan "Dorul-ma'rifa" nusxasi;

Abdulqodir Muhammad Ali tahqiqi bilan Livanning Bayrut shahrida 3 jild sifatida 2011-yilda "Dor al-kutub al-Arobiyya" nashriyotida chop etilgan nusxasi.

## 2. AN-NUR AS-SORIY MIN FAYZI SAHIH AL-BUXORIY

Ushbu qiymatli sharning musannifi Shayx Hasan Idviy al-Hamzoviy bo'lib, bu zot Molikiy mazhabining faqihi bo'lgan. Qolaversa, bu zot hadis va kalom ilmlarining peshvosi sifatida ham mashhur bo'lgan.

Shayx Hasan Idviy Misr Arab Respublikasi Sharqiyya viloyatidagi Idva qishlog'ida hijriy 1221-yil, milodiy 1807-yilda tavallud topgan.

Al-Azhar Dorulfununida ta'lim olgan Shayx Hasan Idviy keyinchalik Alloma va Xodimus-sunna nomlari ila atala boshlagan. Bundan tashqari Shayx Hasan Idviy Sunnati Sharifni va salafi solihinlarning siyratlarini puxta bilishi ila mashhur bo'lgan.

Bu zot hijriy 1303-yil Ramazon oyining 20-kuni, milodiy 1887-yilda Qohirada vafot etgan. Bu asarning aynan shu nomda ekanligini tarixchi Fuad Sezgin o'zining "Tarix at-turos al-Arobiy" asarida keltirgan.

Bundan tashqari, "Hadiyyatul Orifin" asarining muallifi Alloma Bag'dodiy ham shunga yaqin nom bilan "An-nurus soriy sharh al-jome' as-Sohih lil Buxoriy" tarzida keltirgan. Bu sharhni yana bir necha nomlar bilan tarixchilar o'z asarlarida keltirib o'tishgan.

Ushbu sharhni birinchi marta 1869-yilda Qohirada "Jome' al-Buxoriy" hoshiyasi sifatida nashr qilinganini Eduard Van Deyk o'zining "Iktifa al-qunu' bima huva matbu" asarida aytib o'tgan.

Tarixchi Karl Brukellmann ham bu asarni aynan shu nusxasini hamda yana Qohiradagi Buloq nashriyotida 1878-1879yillarda nashr qilingan nusxasi borligini zikr qilgan.

Kitobning yangi nusxasi Livan davlatining Bayrut shahrida Muhammad al-azaziy tahqiqi bilan "Dor al-kutub al-arobiyya" nashriyotida 2014-yili "An-nur as-soriy min fayzi sahih al-Buxoriy" nomi bilan chop qilingan.

Ushbu sharh oson va yengil, tushunishga oson ajoyib uslubda yozilgan bo'lib, sharhda oldingi o'tgan Sahihul Buxoriy shorihlarining kitoblaridan keng foydalanilgan. Muallif ushbu sharhda Sahihul Buxoriyning nusxalari orasidagi farqlarni bayon qilishga, hadislarda nomutanosiblik bor deb tushunilishi mumkin bo'lgan joylarda yechim berishga, hadislardagi tushunishga qiyin bo'lgan so'zlarni izohlab berishga, so'zlarda qaysi so'z qaysi har bilan kelganligini ochiqlab berishga, ayrim o'rinlarda grammatik qoidalarni keltirib javob berishga jiddiy e'tibor qaratgan. Qolaversa, kitobda hadislardan ko'zlanayotgan ayni ma'noni ifoda etishga ham urg'u berib o'tilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, biz yuqoridagi ikki sharhni aynan zikr qilish bilan Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asariga yozilgan eng go'zal va yetuk sharhlar shu ikkisi xolos degan noto'g'ri fikrni o'quvchining zehninga keltirishdan yiroqmiz. Balki, gulzordagi xushbo'y gullolalardan bir juftining hidini eslatgimiz keldi xolos.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doktor Ahmad Muhammad Ibrohim Xotir. Juhud ash-shuyux al-Azhar va ulamaihi an-nubala va man asha bi-Misro va manahijihim fi xidmati Sohihi al-Imam al-Buxoriy. – Misr: Jamiat al-Azhar, 2016. – 458b.
2. Karl Brukkelmann. Tarix al-adab al-arobiyy. – Iordaniya: Dor al-Maarif, 1977. – 2155b.